

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2021.T.143.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
O‘zR FA ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI**

MUXAMMADJONOV MUXAMMADYUSUF SHUXRAT O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYADAGI MOYLI KUCH
TRANSFORMATORLARINING SOVITISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Muxammadjonov Muxammadyusuf Shuxrat o‘g‘li

Ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining sovitish tizimini takomillashtirish orqali ishonchliligini oshirish..... 3

Мухаммаджонов Мухаммадюсуф Шухрат угли

Повышение надежности эксплуатируемых силовых масляных трансформаторов путём усовершенствования системы охлаждения..... 21

Muxammadjonov Muxammadyusuf Shuxrat ugli

Improving the reliability of operated power oil transformers by improving the cooling system 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 43

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2021.T.143.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI
O‘zR FA ENERGETIKA MUAMMOLARI INSTITUTI**

MUXAMMADJONOV MUXAMMADYUSUF SHUXRAT O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYADAGI MOYLI KUCH
TRANSFORMATORLARINING SOVITISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH ORQALI ISHONCHLILIGINI OSHIRISH**

05.05.01 – Energetika tizimlari va majmualari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PHD/T3322 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika instituti va O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.energetika.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Yusupov Dilmurod Turdaliyevich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponyentlar: Xamidov Shuxrat Vaxidovich
texnika fanlari doktori, professor

Hoshimov Ural Hoshimovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutida huzuridagi DSc.02/30.12.2021.T.143.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "11" dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40. Tel.: (99897) 480-28-07; e-mail: energetika_in@mail.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (12 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 40. Tel.: (99897) 480-28-07).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "28" noyabr kuni tarqatildi.
(2024 yil "27" noyabr dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi)



[Handwritten signature]

X.M. Muratov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

J.N. Tolipov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), katta ilmiy xodim

[Handwritten signature]

O.X. Ishnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari
doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanib borishi, yangi sanoat korxonalarining paydo bo'lishi, aholini elektr energiyasiga bo'lgan talabning ortib borayotganligi hamda elektr energiyasining uzluksizligini ta'minlashga bo'lgan talabning eng yuqori darajaga ko'tarilishi natijasida energetik uskunalarning ishlash ishonchligini oshirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda "jahon miqyosida ekspluatatsiyadagi kuch transformatorlarining jami to'la quvvati 10000 GVA dan ortiqni tashkil etmoqda"¹. Ushbu yuqori quvvatli majmuaning ekspluatatsion ishonchligi ulardagi sovitish tizimlarining ishonchligiga bog'liq. Kuch transformatorlari energetika tizimining eng muhim elementlaridan bo'lib, ularning ishlamay qolishi texnik muammolar va iqtisodiy xarajatlarga olib keladi. Xususan, transformatorlarni ishdan chiqishiga sabab bo'luvchi omillardan biri ularda kechuvchi issiqlik jarayonlari bo'lib, uskunalarning mavjud sovitish tizimlarini takomillashtirish va ekspluatatsiya ko'rsatkichlarini baholash orqali transformatorlarning ishonchligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda energetika tizimlarida kuch transformatorlarini haroratga bog'liq bo'lgan holatlarini aniqlash va ularni kamaytirish usullari, ekspluatatsiyadagi kuch transformatorlarining ishlash muddatini uzaytirish hamda ishonchligini oshirish, moyli kuch transformatorlarining to'xtovsiz ishlashi uchun o'z vaqtida texnik xizmat ko'rsatish, shu bilan birga kuch transformatorlarining sovitish tizimlaridagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish, sovitish yuzalarini oshirish va moy aylanishini jadallashtirish uchun qo'llaniladigan radiatorlarni takomillashtirish, transformator moyining texnik va izolyatsiya holatini baholash, transformatorlarda kuzatilayotgan nuqsonlarni erta aniqlash masalalariga qaratilgan bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda, jumladan, moyli kuch transformatorlarini ishlash muddatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, hosil bo'luvchi qizish jarayonlarini oldini olish, yuqori samarali qo'shimcha sovitish qurilmalarining konstruksiyalarini takomillashtirish hamda issiqlikni kamaytirish orqali transformatorlarning ishlash ishonchligini oshirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ko'plab katta-kichik ob'yektlarning barpo etilishi, aholini elektr qurilmalaridan foydalanishga bo'lgan ehtiyojining ortib borishi hamda iqlim o'zgarishlari natijasida havo haroratining ko'tarilishi elektr energiyasini taqsimlash tizimining asosi hisoblangan transformatorlarda yuklamaning me'yoridan ortishiga va ishlash ishonchligining kamayishiga olib kelmoqda, ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning

¹ Statistical Review of World Energy, 67-th edition, June 2018.

energiya samaradorligini 20 foizga oshirish”² bo‘yicha muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarida issiqlik jarayonlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash, transformatorlarning mavjud sovitish tizimlarini o‘rganish asosida ularning sovitish sxemasini takomillashtirish va sovitish jarayonlari bo‘yicha nazariy tadqiqotlar olib borish, ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilmani yaratish, transformatorlarni qo‘shimcha sovitish orqali ishlash ishonchliligini baholash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son va 2023 yil 16 fevraldagi 57-son “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2023 yil 28 sentyabrdagi PF-166-son “Energetika sohasini isloh qilishning navbatdagi bosqichini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019 yil 22 avgustdagi PQ-4422 “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2020 yil 10 iyuldagi PQ-4779 “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalb etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo‘yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 2. “Energetika, energiya tejamkorlik va muqobil energiya manbalari” ustuvor yo‘nalishiga mos keladi.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Energetika tizimida ekspluatatsiyada bo‘lgan moyli kuch transformatorlaridagi issiqlik jarayonlari, sovitish tizimlarini takomillashtirish va ishlash ishonchliligini oshirishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Janubiy Xitoy texnologiya universiteti (Xitoy), Ilmenau texnologiya universiteti (Germaniya), Koreya elektronika muhandislari instituti (Koreya), Tula davlat universiteti (Rossiya), Moskva energetika instituti (Rossiya), Sankt-Peterburg davlat agrar universiteti (Rossiya), Tomsk politexnika universiteti (Rossiya), Ufa davlat neft texnika universiteti (Rossiya), Belarus milliy texnika universiteti (Belarussiya) va boshqa ko‘plab ilmiy maktablarda keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Energetika tizimining asosiy elementi hisoblangan kuch transformatorlaridagi issiqlik jarayonlarini tadqiq qilish, ularni sovitish tizimini takomillashtirish, yangi sovitish usullarini ishlab chiqish va elektr uskunalarning ishlash ishonchliligini

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi farmoni

oshirishga qaratilgan muammolarni yechishda H. Zhang, Yu.N. Timonin, O.S. Dmitriyeva, A.V. Dmitriyev, H.M. Gruber, R. K chler, S. Filipic, Do-Hyeoun Cho, P.V. Kasheyev, A.A. Xismatullin, M.G. Bashirov, D.I. Zalizniy, V.S. Petrov, A.B. Svyatix, P.B. Risev, V.K. Fyodorov, V.G. Besedin, V.Z. Manusov, Ye.A. Soroka, Yu.N. Papazov, Yu.A. Klochixin va boshqa ko‘plab xorijiy olimlar katta hissa qo‘shishgan.

Respublikamizda energetika tizimining asosiy elementlari hisoblangan elektr uskunalarning ishonchliligi va samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy muammolarni hal qilishda X.F. Fozilov, M.Z. Hamudxonov, R.A. Zaxidov, T.X. Nasirov, Q.R. Allayev, X.M. Muratov, A.A. Xashimov, F.A. Xoshimov, Sh.V. Xamidov, N.B. Pirmatov, O.X. Ishnazarov, O.Z. Toirov va boshqa ko‘plab olimlarimiz o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar.

Ko‘plab olib borilgan tadqiqotlar, erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, ekspluatatsiyada bo‘lgan moyli kuch transformatorlarining sovitish tizimlari, ularda issiqlik jarayonlarining yuzaga kelish sabablari hamda qo‘shimcha sovitish usullari va ularni takomillashtirish orqali ishlash ishonchliligini oshirish bo‘yicha yetarlicha izlanishlar olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona politexnika instituti hamda Innovatsion rivojlantirish agentligining ilmiy g‘oyani rag‘batlantirish to‘g‘risidagi 025 – sonli shartnomasi asosida “Kuch moy transformatorlarini sovitishda quyosh energiyasidan foydalanish” mavzusi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Energetika muammolari institutining 2022-2025 yillarga mo‘ljallangan ilmiy - tadqiqot ishlari dasturining “Energetikani rivojlantirishning ishonchliligi va xavfsizligini ta’minlashning metodologik asoslarini ishlab chiqish” mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi ekspluatatsiyadagi (M (ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini sovitish tizimini takomillashtirish orqali oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

M (ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovituvchi usulni ishlab chiqish;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish orqali ularning haroratini o‘zgarish jarayonini aniqlash imkonini beruvchi matematik modelni ishlab chiqish;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovituvchi qurilmani ishlab chiqish, tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish va olingan natijalarni solishtirish;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlari ishonchliligini qo‘shimcha sovituvchi qurilmani qo‘llash orqali baholash.

Tadqiqot obyekti sifatida M (ONAN) tabiiy havo va moy sirkulyatsiyali sovitish tizimiga ega bo‘lgan ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlari olingan.

Tadqiqot predmetini ekspluatatsiyadagi (M (ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlarining sovitish jarayonlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida energiyani saqlanish qonuni va massa saqlanish qonuni, Teylor qatori, Nyutonning sovitish qonuni, regressiya usuli, ehtimollar nazariyasi, Montzinger qoidasi, issiqlik uzatish jarayonlari, matematik statistika, eksponensial taqsimot va ishonchlilik nazariyasidan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

M (ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarining harorati me'yorida oshganda avtomatik ravishda ishga tushish hamda sovuq havo oqimini issiq nuqtaga yo'naltirish asosida qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi usul ishlab chiqilgan.

ekspluatatsiyadagi kuch transformatorining haroratini aniqlash imkonini beruvchi matematik model yuklama koeffitsiyenti, moy va tashqi muhit haroratlarini kiruvchi parametrlar sifatida qabul qilib, qo'shimcha sovitish jarayonini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilma "transformator - harorat datchiklari - ventilyator - kompressor - xladagentli sovitish kamerasi" ketma-ketligi asosida ishlab chiqilgan;

moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini baholash imkonini beruvchi usul qo'shimcha sovitish texnologiyasi va chulg'am izolyatsiyasining ishlash muddatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

M (ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi usul ishlab chiqilgan;

qo'shimcha sovitish orqali transformator haroratining o'zgarish jarayonini aniqlash imkonini beruvchi matematik model asosida dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorini qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilma ishlab chiqilgan;

ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish orqali ishlash ishonchliligini va ishlash muddatini baholash uchun dasturiy ta'minotlar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot yakunida o'z aksini topgan umumnazariy xulosalar, ilg'or matematik usullar yordamida ma'lumotlarni qayta ishlanganligi va belgilangan me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, shuningdek, nazariy va tajribaviy natijalarning o'zaro mos kelishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'shimcha sovitish orqali ekspluatatsiyadagi (M (ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlari haroratining o'zgarishini aniqlash imkonini beruvchi tizimning matematik modeli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ekspluatatsiyadagi (M(ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilmaning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Eksploatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini oshirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

eksploatatsiyadagi (M(ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilma "Quva tekstil" MChJ korxonasi joriy etilgan ("O'zbekiston savdo-sanoat palatasi"ning 2023 yil 6 iyundagi 11/03-30-6544-son ma'lumotnomasi). Natijada "Quva tekstil" MChJ korxonasi mavjud 10/0,4 kV kuchlanishli jami 10 dona (6 dona 1000 kVA quvvatli va 4 dona 1600 kVA quvvatli) moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish orqali yiliga jami 50 746 300 so'm iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

eksploatatsiyadagi (M(ONAN) sovitish tizimiga ega) moyli kuch transformatorlarining ishlash ishonchliligini baholash imkonini beruvchi usul "Quva tekstil" MChJ korxonasi joriy etilgan ("O'zbekiston savdo-sanoat palatasi"ning 2023 yil 6 iyundagi 11/03-30-6544-son ma'lumotnomasi). Natijada eksploatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining ishlash muddati 28 908 soatdan 52 560 soatga, ya'ni o'rtacha 2 baravar oshishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 17 ta ilmiy-amaliy anjumanlar, shu jumladan 6 ta xalqaro va 11 ta respublika anjumanlarida aprobatsiyadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 5 ta ilmiy maqolalar 1 ta xorijiy va 4 ta mahalliy ilmiy jurnallarda chop etilgan va 3 ta EHM dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 119 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, ularning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Eksploatatsiyada bo'lgan moyli kuch transformatorlarining zamonaviy holati**" deb nomlangan birinchi bobida moyli kuch transformatorlari va ularning texnik holatlari tahlili, moyli kuch transformatorlarining mavjud sovitish tizimlari va ularning ishlash shartlari, eksploatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarida issiqlik jarayonlari va ularni yuzaga keltiruvchi omillar, moyli kuch transformatorlari ishonchli ishlashining

korxonada iqtisodiga ta'siri hamda moyli kuch transformatorlarining sovitish tizimini takomillashtirish bo'yicha mavjud zamonaviy usullar tahlillari keltirilgan. Eksploatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining mavjud sovitish tizimlari va ularning ishlash shartlari, transformatorlardagi issiqlikni yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillarga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Olib borilgan tahlillar asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish jarayonlari bo'yicha nazariy tadqiqotlarni o'tkazish”** deb nomlangan ikkinchi bobida M(ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarining harorati me'yoridan oshganda avtomatik ravishda ishga tushish hamda sovuq havo oqimini issiq nuqtaga yo'naltirish asosida qo'shimcha sovitish imkonini beruvchi usul ishlab chiqilgan (1-rasm).




1-rasm. Eksploatatsiyadagi M(ONAN) sovitish tizimiga moyli kuch transformatorini qo'shimcha sovitish usulining funksional sxemasi: 1- an'anaviy elektr tarmog'i, 2-ventilyator, 3-kompressor, 4-xladagent kengayishi va sovuq yuzga hosil qilishi uchun muzlatgich, 5-, 6- haroratni o'lchovchi modul, 7 - haroratni o'lchovchi modullarning transformatorga o'rnatilgan termoparalari, 8- moyli kuch transformatori

- - elektr uzatish tarmog'i;
- - xladagent uzatish tarmog'i;
- - havo uzatish tarmog'i;
- - issiqlikni sezish signalini uzatish tarmog'i.

Eksploatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo'shimcha sovitish qurilmasida sovuq havo oqimini hosil qilish imkonini beruvchi sovitish kamerasining ishlash prinsipi ishlab chiqilgan (2- va 3-rasmlar).



2-rasm. Qurilmani sovitish kamerasining prinsipial sxemasi



3-rasm. Sovitish kamerasining "Xladagent-havo" moslamasi

Qurilmaga o'rnatish uchun tanlangan ventilyatorning sovitish quvvati (1) ifoda yordamida aniqlangan.

$$q_c = \rho_h c_h G_{h,v} (\theta_{h,k} - \theta_{h,v}) \quad (1)$$

bu yerda q_c – sovitish quvvati, W; $G_{h,v}$ – ventilyatoridagi havo oqimi tezligi, kg/s; $\theta_{h,v}$ – birlik chiqarish havosining harorati, °C; $\theta_{h,k}$ – kirish havosining harorati, °C; ρ_h – standart sharoitda havo zichligi = 1,2 kg/m³; c_h – havoga xos issiqlik = 1,0 kJ/(kg·K).

Qo'shimcha sovitish qurilmasi faqat ventilyatorni ishlatgan holda sovitish jarayonini amalda oshirganda qurilmadan chiquvchi havo harorati quyidagicha ifodalangan:

$$\theta_{h,v} = \theta_{h,k} - \frac{q_c}{\rho_h c_h G_{h,v}} \quad (2)$$

1. Sovitgich trubkalaridan o'tadigan xladagent uchun massa va energiya tenglamasi quyidagicha ifodalangan

$$G_{f,k} = G_{f,ch} = G_f \quad (3)$$

$$\frac{1}{2} \rho_f c_f A_f l \frac{d(\theta_{f,k} + \theta_{f,ch})}{d\tau} = G_{f,k} c_f (\theta_{f,k} - \theta_{f,ch}) + a_{gf} A_i (\theta_g - \frac{\theta_{f,k} + \theta_{f,ch}}{2}) \quad (4)$$

2. Sovitish kamerasidan o'tadigan havo uchun massa va energiya tenglamasi quyidagicha ifodalangan

$$G_{h,v} = G_{h,ch} = G_h \quad (5)$$

Quruq holat jarayoni uchun:

$$W_{h,k} = W_{h,ch} \quad (6)$$

$$\frac{1}{2} \varepsilon_h \rho_h c_h A_h e \frac{d(\theta_{h,v} + \theta_{h,ch})}{d\tau} = G_{h,k} c_h (\theta_{h,v} - \theta_{h,ch}) + a_{gh} A_o (\theta_p - \frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2}) \quad (7)$$

Namlik jarayoni uchun:

$$\frac{1}{2} \varepsilon_h \rho_h c_h A_h e \frac{d(W_{h,v} + W_{h,ch})}{d\tau} = G_{h,v} (W_{h,v} - W_{h,ch}) + \lambda_m A_o (W_{gb} - \frac{W_{h,v} + W_{h,ch}}{2}) \quad (8)$$

$$\frac{1}{2} \varepsilon_h \rho_h c_h A_h e \frac{d(h_{h,v} + h_{h,ch})}{d\tau} = G_{h,v} (h_{h,v} - h_{h,ch}) + a_{gh} A_o (\theta_p - \frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2}) + q_r A_o \lambda_m (W_{gb} - \frac{W_{h,v} + W_{h,ch}}{2}) \quad (9)$$

Trubkalar va sovitish panellari uchun energiya tenglamasi

Quruq holat jarayoni uchun:

$$M_g c_g \frac{d\theta_g}{d\tau} = a_{gw} A_i \left(\frac{\theta_{f,k} + \theta_{f,ch}}{2} - \theta_g \right) + a_{gh} A_o \left(\frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2} - \theta_p \right) \quad (10)$$

Nam holati jarayoni uchun:

$$M_g c_g \frac{d\theta_g}{d\tau} = a_{gf} A_i \left(\frac{\theta_{f,k} + \theta_{f,ch}}{2} - \theta_g \right) + a_{gh} A_o \left(\frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2} - \theta_p \right) + q_r A_o \lambda_m \left(\frac{W_{f,k} + W_{f,ch}}{2} - W_{gb} \right) \quad (11)$$

Tenglamalardagi (3) dan (11) gacha belgilar quyidagicha tavsiflanadi:

bu yerda G – havo oqimi tezligi, kg/s; c – solishtirma issiqlik massasi, J/(kg °C); A – sovuq yuza maydoni, m²; h – entalpiya, J/kg; l – sovitgich panelidagi trubkaning uzunligi, m; e – sovitgich panellarining uzunligi, m; θ – harorat, °C; W – havo namligi, kg/(kg quruq havo); M – massasi, kg; q_r – xladagent kondensatsiyasining yashirin issiqligi, J/kg; a_{gw} – xladagent tomonidagi issiqlik uzatish koeffitsiyenti, Vt/(m² °C); a_{ga} – havo tomonida issiqlik uzatish koeffitsiyenti, Vt/(m² °C); λ_m – massa uzatish koeffitsiyenti, kg/(m²/s); τ – vaqt, s; ρ – zichlik, kg/m³; ε_a – issiqlik almashtirgichdagi havo hajmiga nisbati; h – pastki belgi, havoni anglatadi; f – pastki belgi, xladagentni anglatadi; g – sovitgichning qobiq devori; k – kirish; ch – chiqish; p – sovitgich paneli; gb – sovitgichning tashqi yuzasi yaqinidagi to‘yingan havo; o – sovitgichning havo tomoni yuzasi; i – sovitgichning xladagent tomoni.

3. Parametrlarni aniqlash va chiziqli tenglamaga keltirish.

Tenglamalarda ikki xil ya’ni, asosiy va qo‘shimcha o‘zgaruvchilar ko‘rib chiqiladi: Asosiy o‘zgaruvchilarga kirish va chiqish havosining harorati va namligi ($\theta_{h,v}$, $W_{h,v}$, $\theta_{h,ch}$, $W_{h,ch}$), kirish va chiqish xladagentlarining harorati ($\theta_{f,k}$, $\theta_{f,ch}$), havo va xladagent oqimi tezligi (G_h va G_f). Ushbu o‘zgaruvchilar haroratning boshlang‘ich qiymati (θ_0) va haroratning pasayishi ($\Delta\theta$) ayirmasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin:

$$\theta = \theta_0 - \Delta\theta \quad (12)$$

bu yerda θ mos ravishda $\theta_{h,v}$, $W_{h,k}$, $\theta_{h,ch}$, $W_{h,ch}$, $\theta_{f,k}$, $\theta_{f,ch}$, G_h va G_f ni bildiradi.

Shunday qilib, birlashtirilgan o‘zgaruvchilarni birinchi darajali Taylor qatoridan foydalanib chiziqli qilish mumkin:

$$\sigma = \sigma_o + \left(\frac{\partial \sigma}{\partial \theta} \right)_o \Delta\theta' \quad (13)$$

bu yerda σ mos ravishda a_{gf} , a_{gh} va λ_f ni bildiradi; $u_h(G_h)$ yoki $u_f(G_h)$ uchun θ' va o‘zgaruvchilarni oshirish uchun Δ .

Issiqlik almashinuvining samaradorligi η_s quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_s = \frac{(\theta_p - \frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2})}{(\theta_g - \frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2})} \quad (14)$$

(14) ifoda asosida θ_p ni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\theta_p = \eta_s \theta_g - (\eta_s - 1) \frac{\theta_{h,v} + \theta_{h,ch}}{2} \quad (15)$$

Qo‘shimcha sovitish qurilmasidan chiquvchi havo haroratini (15) ifoda asosida quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

$$\theta_{h,ch} = \frac{2 \cdot (\eta_s \theta_g - \theta_p)}{\eta_s - 1} - \theta_{h,v} \quad (16)$$

Nyutonning sovitish qonuni formulasiga asosan, sovitiluvchi jism va uning atrofidagi harorat o‘rtasidagi farq qanchalik katta bo‘lsa, jismning sirtidagi issiqlik tezroq uzatiladi, ya’ni harorati tezroq pasayadi. Nyutonning sovitish qonuni formulasi quyidagicha ifodalanadi

$$\theta(t) = \theta_{h,ch} + (\theta_t - \theta_{h,ch})e^{-kt} \quad (17)$$

bu yerda t – sovitish vaqti, daqiqa; $\theta(t)$ – berilgan jismning t vaqtdagi harorati, °C; $\theta_{h,ch}$ – tashqi muhit harorati, °C; θ_t – tananing boshlang‘ich harorati, °C; k – doimiy.

Yuklama koeffitsiyenti (K) va tashqi muhit harorati (θ_h) ta’sirida transformator harorati θ_{tr} ning ko‘tarilishi yuzaga keladi. Transformator haroratining o‘zgarishi (17) ifoda asosida ikki bosqichli sovitish jarayoni uchun (18) va (20) matematik modellar ishlab chiqilgan.

1) “Ventilyator” li qo‘shimcha sovitish usuli uchun:

$$\theta_{m,x}(t) = \left(\theta_{h,k} - \frac{q_c}{\rho_h c_h G_{h,v}} \right) + \left(\theta_m - \left(\theta_{h,k} - \frac{q_c}{\rho_h c_h G_{h,v}} \right) \right) e^{-kt_1} \quad (18)$$

agar, $\Delta\theta_m = \theta_{tr,x}(t)$ bo‘lsa (2) ifodadan foydalangan xolda “Ventilyator” orqali sovitish natijasida transformator chulg‘ami izolyatsiyasining eng issiq nuqtasi harorati quyidagicha ifodalangan.

$$\theta_{tr,v} = \theta_h + \theta_{m,x}(t) \cdot \left[\frac{1+R \cdot (K)^2}{1+R} \right]^x + \Delta\theta_{i,m} \cdot (K)^y, \quad (19)$$


2) “Ventilyator + xladagent” li qo‘shimcha sovitish usuli uchun:

$$\theta_{m,y}(t) = \left(\frac{2 \cdot (\eta_s \theta_g - \theta_p)}{\eta_s - 1} - \left(\theta_{h,k} - \frac{q_c}{\rho_h c_h G_{h,v}} \right) \right) + \left(\theta_m - \left(\frac{2 \cdot (\eta_s \theta_g - \theta_p)}{\eta_s - 1} - \left(\theta_{h,k} - \frac{q_c}{\rho_h c_h G_{h,v}} \right) \right) \right) \cdot e^{-kt_2}, \quad (20)$$


agar, $\Delta\theta_m = \theta_{tr,y}(t)$ bo‘lsa (16) ifodadan foydalangan xolda “Ventilyator+xladagent” li sovitish orqali transformator chulg‘ami izolyatsiyasining eng issiq nuqtasi harorati quyidagicha ifodalangan.

$$\theta_{tr.vf} = \theta_h + \theta_{m,y}(t) \cdot \left[\frac{1+R \cdot (K)^2}{1+R} \right]^x + \Delta\theta_{i.m} \cdot (K)^y, \quad (21)$$

Ekspluatatsiyadagi kuch transformatorining haroratini aniqlash imkonini beruvchi matematik model yuklama koeffitsiyenti, moy va tashqi muhit haroratlarini kiruvchi parametrlar sifatida qabul qilib, qo‘shimcha sovitish jarayonini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan. Mazkur matematik model asosida moyli kuch transformatorini qo‘shimcha sovitish orqali haroratining o‘zgarish jarayonini aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan (4-rasm).



4-rasm. Moyli kuch transformatorini qo‘shimcha sovitish orqali haroratining o‘zgarish jarayonini aniqlash algoritmi



5-rasm. Transformatorga qo‘shimcha sovitish usulining qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan hisoblash natijalari


Ishlab chiqilgan matematik model yordamida hisoblash ishlari amalga oshirilgan. Natijada moyli kuch transformatorining haroratini 7-9 °C (o‘rtacha 7,98 °C yoki 10%) ga kamaytirishga nazariy tadqiqotlar asosida erishilgan.

Dissertatsiyaning **“Moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovituvchi qurilmani ishlab chiqish va tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilma “transformator - harorat datchiklari - ventilyator - kompressor - xladagentli sovitish kamerasi” ketma-ketligi asosida ishlab chiqilgan (6-rasm).




6-rasm. M(ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilmasining tayyorlanish jarayonlari va umumiy ko‘rinishi

Tajriba tadqiqotlari “Quva tekstil” MCHJ korxonasida ekspluatatsiyada bo‘lgan M(ONAN) sovitish tizimiga ega 10/0,4 kV kuchlanishli 4 ta 1000 kVA va 6 ta 1600 kVA quvvatdagi moyli kuch transformatorlariga ishlab chiqilgan qurilmani qo‘llash orqali olib borilgan (7-rasm).




7-rasm. Tajriba tadqiqotlarini o‘tkazish jarayonlari

Olib borilgan tajriba tadqiqotlari asosida ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining harorati o‘rtacha $\theta_{(o'rt.farq)} \approx 7,36 \text{ }^\circ\text{C}$ (yoki 11 %) ga kamayishiga erishilgan (8- rasm).



8-rasm. Moyli kuch transformatoriga qo‘shimcha sovitish qurilmasini o‘rnatishdan oldingi va keyingi holatlar uchun haroratlar farqi

Olib borilgan nazariy va tajriba tadqiqot natijalari o‘zaro solishtirilgan. Natijada ular orasidagi farq (adekvatlik) 7-8 % ga teng ekanligi aniqlangan (9-rasm).



9-rasm. Transformatorlarni qo‘shimcha sovutish asosida olib borilgan nazariy va tajriba tadqiqotlari natijalarini taqqoslash grafigi

Dissertatsiyaning “Ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlariga qo‘shimcha sovutuvchi qurilmani qo‘llash orqali ishlash ishonchliligini baholash” deb nomlangan to‘rtinchi bobida moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini baholash imkonini beruvchi usul qo‘shimcha sovutish texnologiyasi va chulg‘am izolyatsiyasining ishlash muddatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining ishlash ishonchliligi asosan chulg‘amlarining ishonchliligi bilan bog‘liq. Tajriba tadqiqotlarida aniqlangan transformatorlarning yuqori harorati asosida quyidagi hisoblash ishlari olib borilgan.

1. Montzinger tomonidan ishlab chiqilgan usul yordamida izolyatsiyaning ishlash vaqti uch xil holat uchun aniqlangan:

$$T_{ishlash\ vaqti_0} = A_0 \cdot 2^{-\frac{T_0}{\Delta T}} = 25,5\ yil\ yoki\ (223\ 380\ soat)$$

$$T_{ishlash\ vaqti_1} = A_{0_1} \cdot 2^{-\frac{T_1}{\Delta T}} = 3,3\ yil\ yoki\ (28\ 908\ soat)$$

$$T_{ishlash\ vaqti_2} = A_{0_1} \cdot 2^{-\frac{T_2}{\Delta T}} = 6\ yil\ yoki\ (52\ 560\ soat)$$

bu yerda A_0 – o‘tkazgich izolyatsiyasining ishlash vaqti bo‘lib, me‘yoriy hujjatlarga asosan $6,225 \cdot 10^4$ yil etib belgilangan; T_0 – izolyatsiyaning qizish harorati hisoblanib Y sinfi uchun $T_0 = 90$ °C etib belgilangan; ΔT – haroratning ortishidagi chegaraviy qiymati bo‘lib, me‘yoriy hujjatlarga asosan 6-12 °C etib belgilangan; $T_{ishlash\ vaqti_0}$ – ekspluatatsiyaga qo‘yilgan yangi transformatorning ishlash vaqti; $T_{ishlash\ vaqti_1}$ – yuqori haroratli ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining ishlash vaqti; $T_{ishlash\ vaqti_2}$ – qo‘shimcha sovutish qurilmasi o‘rnatilgan ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining ishlash vaqti.

Transformatorlarning buzilishlar jadalligi (λ) qo‘shimcha sovutishdan oldin λ_1 va keyingi λ_2 holatlar uchun hisoblangan. Natijada transformatorlarning

buzilishlar jadalligi qo‘shimcha sovitishdan oldin va keyingi holatlar uchun mos ravishda $\lambda_1 = 0,000035$ soat⁻¹ va $\lambda_2 = 0,000019$ soat⁻¹ ga teng bo‘lgan.

Matematik kutilish:

$$M_1(t) = \sum_{i=1}^n P_{i1} t_{i1} = 376059,4074 \text{ soat}$$

$$M_2(t) = \sum_{i=1}^n P_{i2} t_{i2} = 450980,9278 \text{ soat}$$

Dispersiya:

$$D_1(t) = \sum_{i=1}^n P_{i1} t_{i1}^2 - M_1(t) = 24634397024 \text{ soat}$$

$$D_2(t) = \sum_{i=1}^n P_{i2} t_{i2}^2 - M_2(t) = 29809114679 \text{ soat}$$

O‘rtacha kvadratik chetlanish:

$$\sigma_1(t) = \sqrt{D_1(t)} = 156\,953,48 \text{ soat}$$

$$\sigma_2(t) = \sqrt{D_2(t)} = 172\,653,16 \text{ soat}$$

Variatsiya koeffitsiyenti:


$$V_1(t) = \frac{\sigma_1(t)}{M_1(t)} = 0.38$$

$$V_2(t) = \frac{\sigma_2(t)}{M_2(t)} = 0.36$$

Moyli kuch transformatorlarining ishlash ishonchliligini baholash jarayoni eksponensial taqsimot funksiyasidan foydalanilgan bo‘lib, ikkita holat uchun amalga oshirilgan.

$$P(t) = e^{-\lambda t}$$

Bunda ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining ishonchliligi qo‘shimcha sovituvchi qurilma qo‘llanishdan oldingi holat uchun $P_1(t)$ ko‘rsatkichi va qo‘shimcha sovituvchi qurilma qo‘llanilganidan keyingi holat uchun $P_2(t)$ ko‘rsatkichi bilan baholangan. Baholash natijalari 10-rasmda keltirilgan.



10-rasm. Ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini baholash natijalari

Natijada qo‘shimcha sovitish qurilmasini qo‘llash orqali moyli kuch transformatorlarining ishlash muddatini 28 908 soatdan 52 560 soatga, ya‘ni 23 652 soatga yoki o‘rtacha 2 baravarga oshirishga erishilgan.

Bir dona moyli kuch transformatorini qo‘shimcha sovitish natijasida (uning ishlash muddatini oshirish (X_n) va energiya isroflarini kamaytirish (C) hisobiga) kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik (C_Σ) quyidagicha baholangan:

$$C_{\Sigma(1000 \text{ kVA})} = C + X_1 = 1\,314\,630 + 3\,200\,000 = 4\,514\,630 \text{ so'm}$$

$$C_{\Sigma(1600 \text{ kVA})} = C + X_1 = 1\,314\,630 + 4\,600\,000 = 5\,914\,630 \text{ so'm}$$

“Quva tekstil” MCHJ korxonasi 10/0,4 kV kuchlanishli quvvati 1000 kVA bo‘lgan 6 dona va 1600 kVA bo‘lgan 4 dona (jami 10 dona) moyli kuch transformatorlari ekspluatatsiyada mavjud. Ushbu transformatorlarni yilning issiq davrlarida (may-sentyabr oylari) qurilma yordamida qo‘shimcha sovitish orqali (energiya isroflarini kamaytirish hisobiga) o‘rtacha 2518,6 kVt·soat miqdorida elektr energiyasini tejashga va ularning ishlash muddatini o‘rtacha 2 baravarga oshirishga erishilgan. “Quva tekstil” MCHJ korxonasi mavjud jami 10 ta kuch transformatorini qo‘shimcha sovitish natijasida (ularning ishlash muddatini oshirish va energiya isroflarini kamaytirish hisobiga) kutilayotgan iqtisodiy samaradorlik 50 746 300 so‘mni tashkil etgan.

XULOSA

“Ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorlarining sovitish tizimini takomillashtirish orqali ishonchliligini oshirish” mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etilgan:

1. M (ONAN) sovitish tizimiga ega moyli kuch transformatorlarining harorati me‘yoridan oshganda avtomatik ravishda ishlash hamda sovuq havo oqimini issiq nuqtaga yo‘naltirish imkoniyatlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Natijada moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish usuli ishlab chiqilgan.

2. Energiya saqlanish qonuni, massa saqlanish qonuni, Teylor qatori, issiqlik uzatish jarayonlari va Nyutonning sovitish qonunidan foydalanib moyli kuch transformatorini qo‘shimcha sovitish jarayonlari bo‘yicha nazariy tadqiqotlar o‘tkazilgan. Natijada ekspluatatsiyadagi kuch transformatorining haroratini aniqlash imkonini beruvchi matematik model yuklama koeffitsiyenti, moy va tashqi muhit haroratlarini kiruvchi parametrlar sifatida qabul qilib, qo‘shimcha sovitish jarayonini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

3. Ishlab chiqilgan matematik model yordamida hisoblash ishlari amalga oshirilgan. Natijada moyli kuch transformatorining haroratini 7-9 °C (o‘rtacha 7,98 °C yoki 10%) ga kamaytirishga nazariy tadqiqotlar asosida erishilgan.

4. “Transformator - harorat datchiklari – ventilyator – kompressor – xladagentli sovitish kamerasi” ketma-ketligi asosida moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish qurilmasi ishlab chiqilgan va ushbu qurilma yordamida tajriba tadqiqotlari o‘tkazilgan. Natijada ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining harorati o‘rtacha 7,36 °C (yoki 11 %) ga kamayishiga erishilgan.

5. Olib borilgan nazariy va tajriba tadqiqot natijalari o‘zaro solishtirilgan. Natijada ular orasidagi farq (adekvatlik) 7-8 % ga teng ekanligi aniqlangan.

6. Moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini baholash imkonini beruvchi usul qo‘shimcha sovitish texnologiyasi va chulg‘am izolyatsiyasining ishlash muddatini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan hamda ushbu usul yordamida hisoblash ishlari amalga oshirilgan. Natijada ekspluatatsiyadagi moyli kuch transformatorining ishlash muddati 28 908 soatdan 52 560 soatga, ya’ni o‘rtacha 2 baravarga oshishi aniqlangan.

7. Ekspluatatsiyadagi (M(ONAN) sovitish tizimiga ega bo‘lgan) moyli kuch transformatorlarini qo‘shimcha sovitish imkonini beruvchi qurilma “Quva tekstil” MChJ korxonasi joriy etilgan. Natijada korxonada ekspluatatsiyada bo‘lgan moyli kuch transformatorlarining ishonchliligini oshirish hisobiga 50 746 300 so‘m miqdorida yillik iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ДОКТОРА НАУК DSc.02/30.12.2021.Т.143.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ
ПРОБЛЕМ ЭНЕРГЕТИКИ АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ
УЗБЕКИСТАН**

**ФЕРГАНСКИЙ ПОЛИТЕХНИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ
ИНСТИТУТ ПРОБЛЕМ ЭНЕРГЕТИКИ
АКАДЕМИИ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

МУХАММАДЖАНОВ МУХАММАДЮСУФ ШУХРАТ УГЛИ

**ПОВЫШЕНИЕ НАДЕЖНОСТИ ЭКСПЛУАТИРУЕМЫХ СИЛОВЫХ
МАСЛЯНЫХ ТРАНСФОРМАТОРОВ ПУТЁМ
УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОХЛАЖДЕНИЯ**

05.05.01 – Энергетические системы и комплексы

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2022.4.PhD/T3322.

Диссертация выполнена в Ферганском политехническом институте и в Институте проблем энергетики Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.energetika.uz) и информационно-образовательном портале "ZiyoNET" (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель: Юсупов Дилмурод Турдалиевич
доктор философии по техническим наукам,
старший научный сотрудник

Официальные оппоненты: Хамидов Шухрат Вахидович
доктор технических наук, профессор
Хошимов Урал Хошимович
доктор философии по-техническим наукам

Ведущая организация: Каршинский инженерно - экономический институт


Защита диссертации состоится «11» декабря 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2021.T.143.01 при Институте проблем энергетики Академии наук Республики Узбекистан (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, 40. Тел.: (+99897) 480-28-07, e-mail: energetika_in@umail.uz).


С диссертацией можно ознакомиться в информационно – ресурсном центре Института проблем энергетики Академии наук Республики Узбекистан (регистрационный номер 12). (Адрес: 100164, г. Ташкент, ул. Дурмон йули, 40, Тел.: (+99897) 480-28-07)


Автореферат диссертации разослан «28» ноября 2024 года.

(протокол рассылки № 12 от «27» ноября 2024 года).




Х.М. Муратов
Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней, д.т.н.,
профессор


Ж.Н. Толпов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней, PhD, с.н.с.


О.Х. Нишазаров
Председатель научного семинара при
научном совете по присуждению учёной
степени доктора наук, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире уделяется особое внимание вопросам, связанным с повышением эффективности работы энергетических установок в результате развития секторов экономики, возникновения новых промышленных зон, увеличения спроса на электроэнергию со стороны населения, а также усиления требований к непрерывному обеспечению электроэнергией. На сегодняшний день «в мировом масштабе существуют высоковольтные трансформаторы с общей мощностью более 10000 ГВА»¹. Эксплуатационная надежность такого крупного комплекса связана с надежностью систем их охлаждения. Силовые трансформаторы являются одним из важнейших элементов энергосистемы, выход из строя которых приводит к техническим проблемам и экономическим издержкам. В частности, одним из факторов, вызывающих выход из строя трансформаторов, являются переходные тепловые процессы в них, при этом большое внимание уделяется повышению надежности трансформаторов путем совершенствования существующих систем охлаждения оборудования и оценки эксплуатационных показателей.

В мире проводится ряд исследований по вопросам выявления и методам снижения температурно-зависимых состояний силовых трансформаторов в энергетических системах, продления срока службы и повышения надежности эксплуатируемых силовых трансформаторов, своевременного технического обслуживания масляных силовых трансформаторов для бесперебойной работы, а также выявления и устранения проблем в системах охлаждения силовых трансформаторов, увеличения поверхностей охлаждения, ускорения циркуляции масла и усовершенствования радиаторов, оценки технического и изоляционного состояния трансформаторного масла, раннее выявление наблюдаемых неисправности в трансформаторах. В этом направлении, в том числе выявление факторов, влияющих на срок службы масляных силовых трансформаторов, предотвращение процессов нагрева, совершенствование конструкций высокоэффективных установок дополнительного охлаждения, а также, повышение надежности работы трансформаторов путем снижения теплотерь, являются актуальными задачами.

В нашей республике растет потребность потребителей в использовании электроустановок, и в связи с изменением климата повышается температура воздуха, что влияет на нагрузку и снижает надежность работы силовых трансформаторов, являющихся основой системы распределения электроэнергии. В этом направлении осуществляются комплексные меры по устранению имеющихся проблем и достигаются определенные результаты. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены ряд задач, в том числе «Бесперебойное обеспечение экономики электроэнергией, активное внедрение технологий «Зеленой экономики» во все сферы, увеличение энергоэффективности экономики на 20 процентов»². Для

¹ Statistical Review of World Energy, 67-th edition, June 2018.

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28.01.2022 г. № УП-60 «Стратегия развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

реализации этих задач важными являются, в частности, выявление тепловых процессов и факторов в эксплуатируемых масляных силовых трансформаторах, исследование существующих систем охлаждения трансформаторов, создание мобильной установки для масляных силовых трансформаторов, обеспечивающего дополнительное охлаждение, и оценка надежности работы трансформаторов путем дополнительного охлаждения.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», №УП-57 от 16 февраля 2023 года «О мерах по ускорению внедрения возобновляемых источников энергии и энергосберегающих технологий в 2023 году» и №УП-166 от 28 сентября 2023 года «О мерах по проведению очередного этапа реформирования сферы энергетики», №ПП-4422 от 22 августа 2019 года «Об ускоренных мерах по повышению энергоэффективности отраслей экономики и социальной сферы, внедрению энергосберегающих технологий и развитию возобновляемых источников энергии» и №ПП-4779 от 10 июля 2020 года «О дополнительных мерах по сокращению зависимости отраслей экономики от топливно-энергетической продукции путем повышения энергоэффективности экономики и задействования имеющихся ресурсов», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данному виду деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан 2. «Энергетика, энергосбережение и альтернативные источники энергии».

